
Shahartepada yangi klinika faoliyat boshladi

Mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, sog'liqni saqlash davlat tizimining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan sog'liqni saqlashni isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qo'shtepa tumanida ham tibbiyot muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularni zamonaviy tibbiy jihoz, uskunalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, tumanning olis hududlaridagi fuqarolarga tibbiy xizmat turlari sifatini yaxshilash maqsadida xususiy klinikalar ham ochilmoqda.

Kuni kecha "SHAHARTEPA MEDICAL" xususiy korxonasi qarashli Revmatologiya klinikasi foydalanishga topshirildi.



Ushbu tibbiy muassasaga tajribali vrach va hamshiralar jalb etildi. Endilikda malakali mutaxassislar tomonidan hududdagi fuqarolarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatiladi.



2019-12-05 16:34:07